



Uluslararası Beşeri Bilimler ve Sanat Dergisi

International Journal of Humanities and Art

<http://www.trkdergisi.com>

Araştırma Makalesi / Research Article

e-ISSN:2757-6388

trk dergisi

2021

2(1):24-43

Geliş Tarihi / Receive : 08.01. 2021

Kabul Tarihi / Accepted : 06.06. 2021



## Istiqlol Davri O'zbek Bolalar She'riyatining Ba'zi O'ziga Xosliklari

### Bağımsızlık Dönemi Özbek Çocuk Şiirinin Bazı Özellikleri

#### Some Characteristics of Uzbek Children's Poetry in Independence Period

Rahmatulla Barakayev

Doç. Dr., Özbekistan Bilimler Akademisi

Assoc. Dr., Uzbek Academy of Sciences

[Rahmatulla1954@mail.ru](mailto:Rahmatulla1954@mail.ru)

Orcid ID: 0000-0002-1265-7574

**Atıf/Cite as:** BARAKAYEV, Rahmetulla (2021). Istiqlol Davri O'zbek Bolalar She'riyatining Ba'zi O'ziga Xosliklari. trk Uluslararası Beşeri Bilimler ve Sanat Dergisi, 2 (1), 24-43 Retrieved from :

<http://trkdergisi.com/index.php/trk/article/view/25>

**İntihal /Plagiarism:** Bu makale, en az iki hakem tarafından ve bir intihal programında incelenmiş intihal içermediği teyit edilmiştir. / This article has been reviewed by at least two reviewers and in a plagiarism program and has been confirmed to be free of plagiarism.

## Istiqlol Davri O'zbek Bolalar She'riyatining Ba'zi O'ziga Xosliklari

### Annotatsiya

Maqolada istiqloq davri o'zbek bolalar she'riyatida mavzu va talqindagi yangilanishlar haqida fikr yuritiladi. Istiqloq sharofati bilan milliy, madaniy, adabiy, tarixiy qadriyatlarimizning tiklanishi va ularning o'zbek bolalar she'riyatida o'ziga xos tarzda namoyon bo'lishi, ushbu davr bolalar she'riyatining ma'rifiy-tarbiyaviy xususiyatlari hamda "bugungi bolalar she'riyatining qahramoni kim bo'lishi kerak?" degan savollarga bolalar she'riyatimiz etakchi namoyandalari she'rlari tahlili vositasida javob topishga harakat qilinadi.

Chunki bolalar adabiyotining bosh vazifasi yosh avlodni ma'naviy-axloqiy kamolot ruhida tarbiyalashdir. Demak uning asosiy o'ziga xosliklaridan biri kitobxon qalbiga ezgulik urug'ini sepishi, uni eng yaxshi insoniy fazilatlar ruhida tarbiyalashga xizmat qilishi kerakligi, nafaqat adabiy-estetik, balki ma'rifiy ahamiyat kasb etishi bilan ham belgilanadi.

Anvar Obidjonning "Aka-uka" «Uchinchi polapon», «Yantoqlar haqida qo'shiq» she'rlarida mustaqil Vatan kelajagi bo'lmish yosh avlod ramziy yo'sinda kechagi kunimizdagi qo'li bog'liq, ko'zi bog'liq, istibdoddan yurak oldirib qo'ygan katta avlodga qiyoslanishi, Dilshod Rajabning "O'zbek" she'ri xalqimiz qiyofasi mutlaqo yangicha talqini bilan xalqimiz sha'niga bitilgan faxriya-madhiyalar safida o'ziga xos hodisa ekanligi, Hamza Imonberdievning "Alla" she'ri ona burgut polaponining qalbiga «ushbu tog'-tosh, osmonning hukmdori bo'lib o'sish»ni go'dakligidan alla bilan singdirayotganligi bois burgutchga hatto tushida ham keng samoni to'ldirib charx urgani singari farzandlarimiz ham bolalikdan shu aziz vatan egalari, uning baxt-saodati, porloq kelajagini yaratuvchilar ekanliklariga komil ishonch ruhida tarbiyalanmoqlari lozimligiga xizmat qilishi bilan ham e'tiborga molik.

Ijodkor asarlarini bolalarga mo'ljallab yaratar ekan, uning asosiy qahramonlari bolalar bo'lishi ham tabiiyligi, chunki kitobni o'qiyotgan bola asardan, avvalo, o'zini, o'y-fikri, dunyoqarashi, izlanish-intilishlari o'zi bilan bir xil bo'lgan tengdoshlarini qidirishi T.Adashboevning «Tunda uchgan yulduzni», «Mening savolim» she'rlari qahramonlari misolida tahlil qilinsa, H.Imonberdievning «O'jarlar», «G'alati Omon» turkumi, S.Inoyatovning «Yangi bola» she'rlari qahramonlari bugungi o'zbek bolalar she'riyatidagi tom ma'nodagi kurashchan avlod sifatida tadqiq etiladi.



**Anahtar Kelimeler:** Bolalar Adabiyoti, Mustaqillik Davri, Qadriyatları, Ma'rifati, Adabiy Qahramoni.

## Bağımsızlık Dönemi Özbek Çocuk Şiirinin Bazı Özellikleri

### Öz

Makalede, egemenlik dönemi Özbek çocuk nazmında tema ve yorum yenilenmeleri konusu işlenmiştir. Bağımsızlık vesilesiyle milli, edebî, tarihî değerlerimizin yeniden kazanılması ve onların Özbek çocuk şiirindeki özgün tezahürü, dönem çocuk şiirinin eğitim-öğretim özellikleri ve “Günümüz çocuk şiirinin kahramanı kim olmalı?” sorularına çocuk nazmının önde gelen temsilcilerinin şiirleri tahliliyle cevap aranır.

Çocuk edebiyatının baş görevi genç kuşakları manevi ahlaki olgunluk içerisinde eğitmekten ibarettir. Demek ki onun en temel özelliği; okuyucuların gönlüne iyilik ve güzellik tohumlarını ekmesi, onları en güzel erdemlerle eğitmeye hizmet etmesi, edebî estetik öneminin yanı sıra eğitici ehemmiyet arz etmesi ile de belirlenir.

Enver Âbidcan'ın “Aka-uka” (Ağabey-Kardeş), “Uçinçi palapan” (Üçüncü Yavru), “Yantaklar hakkında koşuk” (Dikenler Hakkında Koşuk) gibi şiirlerinde Vatan'ın ve milletin geleceği olan genç kuşağın sembolik olarak eli kolu bağlı, gözleri bağlı, istibdattan korkuya kapılan büyük kuşakla kıyaslanması, Dilşad Receb'in Özbek adlı şiirinin tamamen yeni yorumuyla halkımız için kaleme alınan fahriye-methiyelerin yanında özgün bir hadise olduğu, Hamza İmamberdiyev'in “Alla” (Ninni) şiiri ana kartal yavrusunun kalbine “bu dağ ve taşların, göklerin hükümdarı olarak büyümesi” gerektiğini küçüklüğünden ninniyle sindirdiği sebebiyle yavru kartalın rüyalarında bile gökyüzünü doldurarak uçtuğu gibi evlatlarımızın da çocukluktan itibaren bu aziz vatanın sahipleri, Vatan'ın saadeti ve parlak geleceğinin yaratıcıları olduklarına inanç ruhuyla eğitilmeleri gerektiğine hizmet etmesi önemlidir.

Şair, şiirlerini çocukları düşünerek kaleme aldığından ana karakterlerinin de çocuklar olacağı kesindir. Çünkü kitabı okuyan çocuk düşünceleri, arayışları, çabaları aynı olan yaşlılarını aradığı T. Adaşbayev'in “Tünde Üçgen Yıldızni” (Gece Uçan Yıldızı), “Mening Sevalim” (Benim Sorum) şiirlerinin kahramanları örneğinde analiz edilirken; H. İmamberdiyev'in “Öcerler” (İnatçılar), “Galeti Aman” (Acayip Aman) dizi şiirleri, S. İnatov'un “Yangi Bala” (Yeni Çocuk) şiirleri karakterleri günümüz Özbek çocuk nazmında tam anlamıyla mücadeleci kuşak olarak tetkik edilir.



**Anahtar Kelimeler:** Çocuk Edebiyatı, Bağımsızlık Dönemi, Değerler, Aydınlanma, Edebi Kahraman.

## Some Characteristics of Uzbek Children's Poetry in Independence Period

### Abstract

The article discusses the innovations in the theme and interpretation of Uzbek children's poetry of the Independence period. Cause of independence, the revival of our national, cultural, literary and historical values and their unique manifestation in Uzbek children's poetry, the enlightening and educational features of children's poetry of this period and "Who should be the hero of today's children's poetry?", we try to find answers to these questions through the analysis of the poems of the leading representatives of our children's poetry.

Because the main task of children's literature is to educate the younger generation in the spirit of spiritual and moral maturity. So, one of its main features is that it should sow the seeds of goodness in the heart of the reader, serve to educate him in the spirit of the best human qualities, has not only literary-aesthetic, but also enlightenment significance.

In Anvar Obidjon's poetries, that are "Brothers", "The third chick", "Song about yantak", the young generation, which is the future of the independent Motherland, is symbolically compared to the older generation, who was blindfolded and oppressed. Dilshod Rajab's poetry "Uzbek" is the image of our people, Hamza Imonberdiev's poetry "Alla" instills in the heart of the mother eagle "this rock, growing up to be the ruler of the sky" from infancy, so that the eagle fills the sky even in his dreams with a completely new interpretation of the hymns of our people. It is noteworthy that from childhood our children should be brought up in the spirit of full confidence that they are the owners of this dear homeland, the creators of its happiness and bright future.

When creating works for children, it is natural that the main characters are children, because the child who reads the book, first of all, seeks himself, his peers, whose thoughts, worldviews, aspirations are the same as T.Adashbaev's "Flying Star in the Night". "My Question" is analyzed on the example of the heroes of the poetries. The heroes of H.Imanberdiev's "Capricious", "Strange Life" series, S.Inayatov's "New Child" poetries are studied as a truly struggling generation in today's Uzbek children's poetry.

**Keywords:** Children's Literature, Independences Period, Values, Enlightenment, Literary Hero.



## Kirish

Yer yuzida dastlabki ota-onaning birinchi farzandi dunyoga kelishi bilan bolalar adabiyoti ham maydonga kelishi inkor qilib bo'lmaz haqiqatdir. Chunki bolalar adabiyotining asosiy vazifasi o'sib kelayotgan yosh avlodni tarbiyalash manfaatlariga qaratilgandir. Binobarin, bolalar adabiyoti namunasi yosh avlodni ilm-ma'rifat nuridan bahramand bo'lishga chorlaydimi, kasb-hunar o'rganishga chaqiradimi, eng yaxshi insoniy fazilatlar ruhida tarbiyalashga xizmat qiladimi, bulardan qat'i nazar, uning bosh vazifasi farzandlarimizni ma'naviy-axloqiy kamolot ruhida tarbiyalashdir. Demak uning asosiy o'ziga xosliklaridan biri uning nafaqat adabiy-estetik, balki ma'rifiy ahamiyat kasb etishi bilan ham belgilanadi.

Badiiy adabiyot realistik adabiyot deb nomlanadimi, romantik adabiyot deb ataladimi, syurrealistik debmi, bundan qat'i nazar, dastavval, kitobxon qalbiga ezgulik urug'ini sepishi, uni eng yaxshi insoniy fazilatlar ruhida tarbiyalashga xizmat qilishi kerak. Badiiy adabiyotning bosh vazifasi bundan ming yillar oldin ham shundan iborat edi, bugun ham, bundan ming yil keyin ham shundan iborat bo'lib qolaveradi.

“O'zbek bolalar adabiyoti istiqloq davrida nimalarga erishdi?” degan savolga javob izlar ekanmiz, avvalo, o'tgan davr mobaynida bolalar adabiyotimiz o'z tabiiy o'zanlariga qayta boshlaganini qoniqish bilan e'tirof etish joiz. Birgina misol: bugungi maktablarimizning yangi dasturlariga “Odobnoma” fani kiritildi, yangi darslik va o'quv qo'llanmalarimizdan Kaykovusning “Qobusnoma”, Shayx Sa'diyning “Guliston” va “Bo'ston”, Navoiyning “Hayrat ul-abror”, Xojaning “Miftoh ul-adl” va “Gulzor”, Avloniyning “Turkiy Guliston yoxud Axloq” asarlaridan olingan parchalar mustahkam o'rin egalladi. Binobarin, bolalar adabiyotimiz o'zining bevosita ma'rifiy vazifasini bajarishga kirishdi.

Bundan tashqari, yangi darslik va o'quv qo'llanmalarini tuzishda bugungi bolalar adabiyotimizning yetakchi namoyandalari asarlariga alohida e'tibor berildi, inchunin, farzandlarimiz insoniylik saboqlarini o'z milliy zaminimizda yaratilgan milliy adabiyotimiz namunalarini orqali egallay boshladilar, xalqimizning ko'p ming yillik ma'naviy, adabiy, diniy qadriyatlarini qayta idrok eta boshladilar. Bularning barchasi yosh avlodning ma'naviy komil insonlar sifatida shakllanishi, o'z kindik qoni to'kilgan tuprog'i – Ona Vatani, o'z xalqi, o'z millatining sodiq farzandi bo'lib yetishuvlarida ulkan ma'rifiy ahamiyat kasb etishi shubhasizdir. Chunki o'zini hurmat qila oladigan, o'z tarixi, o'z madaniyati, o'z adabiyotini e'tirof etadigan kishigina tom ma'nodagi vatanparvar bo'la oladi. Ikkinchidan esa, o'z qadriga yetgan odam o'zgalarni ham qadrlay oladi, o'z hurmatini bilgan odam o'zgalarning ham hurmatini joyiga qo'ya oladi.



## Bolalar Sheriyatining Ijtimoiylashuvi

Bu o'rinda shuni ham qayd etish kerakki, istiqlol davri yangi bolalar adabiyotining maydonga kelishiga 80-yillarning ikkinchi yarmi adabiyoti katta ta'sir ko'rsatdi. Zero, ayni shu davrda bolalar adabiyotimiz tom ma'nodagi haqiqatga tik boqadigan adabiyotga aylandi, yosh avlodni erksevarlik tuyg'ulari ruhida tarbiyalashda ilk qadamlarini qo'ydi. Ana shu nuqtai nazardan Istiqlol davri bolalar adabiyotimiz o'sishda, ulg'ayishda, o'zligini tanish yo'lidagi izlanishda deyishga tamomila haqlimiz. Bugungi bolalar adabiyotimizning yetakchi namoyandalaridan bo'lmish Anvar Obidjonning "Aka-uka" she'ri shu jihatdan e'tiborga sazovor. She'rda mustaqil Vatan kelajagi bo'lmish yosh avlod ramziy yo'sinda kechagi kunimizdagi qo'li bog'liq, ko'zi bog'liq, istibdoddan yurak oldirib qo'ygan katta avlodga qiyoslanadi. Akaning pastga, jarlikka "taka-puka" termilishi bejiz emas, chunki jarlik aslida tubanlik ramzi, ikkinchidan esa akaning ko'z oldida xalqimizning istiqlol yo'lida qurbon bo'lgan minglab farzandlari taqdiri turibdi:

Jar bo'yida turishar

Aka-uka.

Aka pastga termilar

Taka-puka.

Yuksakdagi lochinga

Boqar uka,

Go'yo ko'kda jim qanot –

Qoqar uka (Obidjon, 2007: 72).

Shoirning she'rdagi har bir so'zga ma'naviy yuk yuklashi ana shu satrlarda namoyon bo'lgan desak, adashmaymiz. Chunki, aka termiladi, "termilish" da mahzunlik, zoriqish ma'nosi yetakchi, uka boqadi, "boqish" da esa dadillik, mardlik ma'nosi ustivor. Ukaning nigohi ko'kda parvoz qilayotgan lochinga tikilishi ham tabiiy, chunki ko'k ham, unda parvoz qilayotgan lochin ham aslida erk timsollari. Ukaning esa parvozi baland – nigohi Istiqlolning yorishib kelayotgan porloq nurlariga – ko'kka tikilgan. Shu bois uka yosh kitobxon ko'z o'ngida Lochin yanglig' Erkin, erki uchun kurashga tayyor Inson timsoli sifatida namoyon bo'ladi.

"Uchinchi polapon" she'rida shoir "Aka-uka" dagi mavzuni davom ettiradi, yanada rivojlantiradi. She'rda erkin qush – Lochin farzandlarining yovuzlik timsoli bo'lmish Oqilon bilan hayot-mamot jangi tasvirlanadi. Yovuz Oqilon



Rahmatulla Barakayev

onasini yordamga chaqirib chinqirgan ikki polaponni bir zumda qoniga bo'yaydi. Lekin inda Lochinning uchinchi polaponi ham bor. Garchi u norasida go'dak bo'lsa-da, uzoqlardagi onasini yordamga chaqirib yig'lashdan samar yo'kligini tushunib yetadi va o'zini o'zi himoya qilib, qattol dushmanini cho'qib tashlaydi. She'r kelajakka ishonch ruhi bilan yo'g'irilgan:

Ajdod qoni, o'ch hissi

Berdi unga kuch, dalda.

Cho'qib oldi raqibin

Bo'yin cho'zgan mahalda.

Cho'chib o'tli nigohdan

Yov to'lg'anar dovdirab,

Mag'rur turar yosh Lochin,

Boqmas ko'kka jovdirab

satrlarida erk uchun kurashgan, dushmanga qarshi doimo omonsiz kurashib kelgan ajdodlar ruhi mard farzandlarga bir umr kuch, dalda berishi tuyg'ulari yetakchilik qilsa, yakuniy:

U biladi,

Onasi –

Hozir olis bir joyda.

Bo'm-bo'sh ko'kka termilib

Qichqirmoqlik befoyda.

O'chkor boqar qotilga

Onaning mard Lochini.

Omon qolsa,

Bir kun u –

Yanchar Ilon boshini (Obidjon, 2007: 36).

satrlaridagi qotilga o'chkor boqayotgan uchinchi polaponning bir kun yovuz Ilon boshiga yetishi, dushmanidan omonsiz o'ch olishiga ishonch tuyg'usi yosh kitobxon qalbiga ham ko'chib o'tadi, hayot uchun, erk uchun kurash tuyg'ulari barhayotligiga ishonch tug'diradi.



“Yantoqlar haqida qo'shiq” ham ozodlik, erk uchun kurash tuyg'ulari yetakchilik qilishi bilan ajralib turadi. “Suvsizlikdan so'lmasdan, garmseldan jon saqlab, yovuz sahroni yengib” yashayotgan “yantoqlar” ham aslida xalq ramzi. Garchi u “yovuz sahro”da “suvsizlikdan so'lish”ga, “Garmsel”ning o'tli shamollari ta'sirida asta-sekin o'linga mahkum qilingan bo'lsa-da, biroq “yantoqlar”ning chuqur o'rnashgan, mustahkam ildizi har qanday sharoitda ham yashash uchun kurashga chorlaydi, shu bois ham yantoqlar doimo gullaydi, meva tugadi, kelajak avlodni yaratadi. Binobarin, zukko kitobxonning sinchkov nigohi bu she'rda xalqimizning istibdod tig'i ostida o'tgan keyingi yuz yildan ortiqroq davr mobaynidagi tarixi ramziy yo'sinda aks ettirilganini darrov payqab oladi. Shoir:

Ezib o'tdi yilqilar,

Ezib o'tdi nortuya,

Tiklandingiz qaytadan

Olamda biz bor, deya,

Balli sizga yantoqlar!

Yancholmadi bo'ronlar,

Kuymadingiz otashdan.

G'animlar ham hayrondir

Bunday chidam, bardoshdan,

Balli sizga, yantoqlar (Obidjon, 2007: 18).

der ekan, bu misralardagi “yilqilar” va “nortuya” ham yurtimizga bostirib kelgan turli g'animlar timsoli yanglig' namoyon bo'ladi. She'rda Chingizxon suvoriylarining yilqilari va arablarning tuyalari oyog'i ostida ezilgan, toptalgan xalqimiz baribir o'zini tiklab olgani, uni turli taloto'plarning bo'ronlariyu otashlari yo'q qilolmaganidan hatto g'animlarning o'zlari ham hayronliklari ishonarli tasvirlangan. Ehtimol, yosh kitobxon bu imo-ishoralar, ramzlarni to'la tushunmas, biroq ramzlar, timsollarga asoslangan asarlar shunisi bilan xarakterliki, ulardan har bir kitobxon o'ziga kerakli narsani uqib oladi. Barcha yoshdagi kitobxonlarga mo'ljallangan bunday asarlar shu boisdan ham ko'p qatlamli bo'ladi.

Odatda, badiiy asarlarda chinor xalq timsoli sifatida tasvirlanishiga tabiiy hol sifatida ko'nikib qolganmiz. Bu she'rda esa ijodkor an'anaviy timsolni o'ziga xos tarzda yangilaydi, zero, yer ustidagi qismi u qadar katta bo'lmasa-da, yantoq butasi chuqur-chuqurlarga borib yetgan ildizining baquvvatligi bilan e'tiborga sazovor hamda uning qanchadan qancha sitamu





jafolarga bardosh berib, o'zini qayta tiklay olgani xalqimizga qiyoslanishi shu boisdan ham o'zini to'la oqlaydi.

### **Bolalar Sheriyatida Xalq Timsoli**

Va nihoyat, istiqlol davri bolalar adabiyoti she'riyatiga ilk bora haqiqiy o'zbek qiyofasi kirib kela boshladiki, bu qadam yosh avlodni o'zligini tanish yo'lida tarbiyalashdagi sifat jihatdan o'zgarish tarzida baholanishi joiz. Iste'dodli shoir Dilshod Rajabning "O'zbek" she'ri ana shu Inson, xalq tasviriga urg'u berilgan she'r sifatida e'tiborga sazovordir. She'rning dastlabki satrlaridanoq bag'rikeng o'zbek qiyofasiga chizgilar chizila boshlaydi:

Sig'masa ham o'zi, do'stga

Joyi bor uning.

Yo'lovchiga "Bir piyola" –

Choy"i bor uning.

Darhaqiqat, o'zbek qiyofasini belgilovchi qirralar, avvalo, uning bag'rikengligi bilan bog'liqdir. Serfarzand, bolajon o'zbek bola-baqrallari bilan o'zi uyiga zo'rg'a sig'ib turgan bo'lsa-da, mehmonni "atoyi xudo" deb biladi, uyining to'rini mehmonga bo'shatib beradi, qozoniga har kuni bir parcha go'sht solishga qiynalsa-da, mehmonning oyog'i ostiga qo'y so'yadi. Hatto ko'chadan o'tib ketayotgan yo'lovchiga ham, albatta, bir piyola choy taklif qilish o'zbek xarakterini belgilovchi qirralardandir.

Egatlardan topgan qaddi –

Yoyi bor uning,

Har yil yozda imorati,

Loyi bor uning.

O'zbek qiyofasini belgilovchi yana bir xarakterli qirra uning mehnatsevarligidir. O'zbek erta bahordan kech kuzgacha tinim bilmay dalada mehnat qiladi, bola-chaqasini peshana teri bilan topgan halol daromadi hisobidan boqadi. Binobarin, o'zbek uchun "halol mehnat" tushunchasi qanchalik xarakterli bo'lsa, "halol daromad" tushunchasi ham u bilan bab-baravardir. Shu sababli ham o'zbekning qaddi og'ir mehnatdan egik bo'lsa-da, qalbi pok, ko'ngli ochiq.

Mehnatsevar o'zbek dalada mehnat qilibgina qolmaydi. U o'zining huzur-halovatini emas, bola-chaqasining kelajagini o'ylaydi. O'g'ilni sunnat qilish, uylantirish, qiz chiqarish – xalq oldiga dasturxon yozib, oq fотиhasini, duosini olish o'zbek uchun eng katta boylik. Shu boisdan ham u har yil



yozda loy qilib, imorat quradi – bola-chaqasiining baxtli kelajagini ta'minlaydi. Chunki:

O'g'il-qizi – yorug' yulduz,

Oyi bor uning,

O'chmas izi, bosadigan

Toyi bor uning.

Binobarin, "ot izini bosadigan toylar"i, "oyu yulduz"lari uchun mehnat qilishdan o'zbek hych qachon charchamaydi va ana shu tuyg'u – bolajonlik ham ajdoddan avlodga ming yillar davomida azizu mukarram meros bo'lib o'taveradi. Shu boisdan ham o'zbekning doimo chehrasi ochiq, bag'ri ochiq, dasturxonini ochiq. Shu bois ham yaratgan-ning o'zi bu jannatmakon diyorni o'zbekning makoni qilib yaratgan. She'r:

Do'ppisini ko'kka otib

Shodlansa arzir;

O'zbekiston degan jannat

Joyi bor uning (Rajab, 1996: 28-29).

satrlari bilan yakunlanar ekan, bunda shoirning ana shunday ulug' el farzandi ekanligidan faxr va g'urur tuyg'ulari yangraydi. Xalqimiz sha'niga bitilgan ko'plab faxriya-madhiyalar safida kichkintoy kitobxonlarga mo'ljallangan ushbu mo'jaz she'rning ham o'z o'rni bor. Bu she'r yosh kitobxon qalbida ham g'ururu iftixor tuyg'ularini uyg'otadi, o'zligini belgilashga xizmat qiladi. Xalqimiz sha'niga bitilgan ko'plab faxriya-madhiyalar safida kichkintoy kitobxonlarga mo'ljallangan ushbu mo'jaz she'rning ham o'z o'rni bor. Bu she'r yosh kitobxon qalbida ham g'ururu iftixor tuyg'ularini uyg'otadi, o'zligini belgilashga xizmat qiladi.

Shuni alohida qayd etish kerakki, istiqlol shoirlarimiz qalb qa'rida noilojlikdan ko'milib yotgan hissiyotlarni baralla namoyish etish, ona-vatan, ona-xalq, ona tili, kindik qoni to'kilgan muqaddas tuproq, uning tarixi ming yillarga borib taqaladigan qanchadan qancha qadriyatlarini, jahon ilm-fani, madaniyati, ma'naviyati tarixida alohida o'rin tutadigan ulug' ajdodlari haqida to'lib-toshib kuylash imkoniyatlarini yaratdi. Xalqning eng uyg'oq, og'zaki va yozma adabiyotimizning barhayot an'analari bulog'idan suv ichib shakllangan ilg'or vakillari hisoblangan ijodkorlar birinchi imkoniyat tug'ilishi bilan yana sarchashmalarga murojaat qildilar, yosh avlodni «etti otasini» taniydigan, ularga munosib avlodlar qilib tarbiyalash manfaatlariga xizmat qiladigan asarlar yaratishga harakat qildilar. Ularning Turkistonning olamni o'z aql-idrok nuri bilan lol qoldirgan Beruniy, Ibn Sino, Forobiy, Yugnakiydek allomalari, Amir Temurdek sohibqironlari, Xo'ja Ahmad Yassaviy, Alisher Navoiydek ma'rifat nuri charog'bonlari bo'lmish ota-



bobolarini tanish, ularga munosib zuryodlar bo'lishga chorlashi bilan davr talabiga hamohang, dolzarb mavzudagi badiiy jihatdan barkamol faxriya asarlari istiqloq davri o'zbek bolalar she'riyatini mavzu jihatidan tom ma'noda yangiladi.

Bu o'rinda shuni alohida qayd etish kerakki, bugungi kunda tom ma'nodagi yosh avlod paydo bo'ldi. Bu avlodning fazilati shundaki, u kompyuter bilan tillashishga usta, xorijiy tillarni ham yaxshi biladi. Bu avlod o'ziga yaratilgan barcha imkoniyatlarning qadriga yetadigan amaliyotchi avlod. Bu avlod vakillari fanlar bo'yicha xalqaro olimpiadalarda yetakchi o'rinlarni egallab, mustaqil O'zbekiston shon-shuhratini olamga tanitayapti. Bugungi adabiyotimizga tobora dadil qadamlar bilan kirib kelayotgan Zulfiyaxonim qizlarini ham alohida tilga olish kerak. Aslida, bu natijalarning barchasi mamlakatimizda istiqloqning dastlabki kunlaridan e'tiboran yosh avlod jismoniy va ma'naviy kamolotiga alohida e'tibor berilayotganligining yaqqol tasdig'idir. Mustaqil O'zbekistonning dastlabki ordeni «Sog'lom avlod uchun» deb nomlanishi, 2000 yilning «Sog'lom avlod yili», 2010 yilning «Barkamol avlod yili» deb belgilanishi esa bu boradagi bunyodkorlik ishlarining naqadar ko'lamdorligini, jamiyatimiz istiqbolini o'sib kelayotgan yosh avlod belgilashiga alohida e'tibor qaratilayotganligini tasdiqlaydi.

Biroq yuqoridagilar bilan bir qatorda badiiy adabiyotni maktab adabiyot darsliklariga kiritilgan namunalar darajasidagina biladigan, badiiy asar o'qishdan ko'ra test yodlaydigan amaliyotchi avlod ham paydo bo'lganligini ham tan olish joiz. Bu avlod kitobning qog'ozi hidi qandayligini bilishiga gumonim bor. Chunki u televizorda xorijning zo'ravonlik targ'ibiga asoslangan multfilmlarini ko'rib ulg'aymoqda, kitobni ham kompyuterdan, Internetdan o'qiydi. Internetdagi kitoblarning esa farzandlarimizni xalqimizning milliy, madaniy, tarixiy, adabiy qadriyatlarini ruhida tarbiyalashga xizmat qilishi dargumon. Binobarin, yosh avlod ma'naviy kamolotiga mas'ul har bir kishining oldida farzandlarimizni badiiy adabiyot o'qish, ular qalbida asar qahramonlari taqdiriga esh bo'la olish, xursandchiligini o'z xursandchiligi, xafaligini o'z xafaligi sifatida qabul qila olish ko'nikmasini hosil qilishdek mas'uliyatli vazifa turibdi.

Yosh avlod ma'naviy kamolotini ta'minlashda bolalar adabiyoti o'ziga xos o'rin tutishi aniq. «Bolalar adabiyoti» deganda bolalar yosh xususiyatlariga mos keladigan, tabiat va jamiyatdagi voqea-hodisalar xususida yosh kitobxon tushunchasi darajasida ma'lumot beradigan sho'x va o'ynoqi, tarbiyaviy ahamiyat kasb etadigan asarlarni tushunish qon-qonimizga singib ketgan. Shu sababli ham shoiru nosirlar hazilkash, sho'x, o'yinqaroq, topqir bolakaylar haqida hazil-huzilga boy hajviy she'ru hikoyalar, dostonu qissalar bitadilar; nabotot va hayvonot dunyosini bolalarning hayratomuz nigohi bilan qayta-qayta kashf qiladilar; parranda, darrandalarni misol qilib, ibratomuz ertagu masallar yozadilar; Vatan – kindik qoni to'kilgan muqaddas Ona tuproqqa sadoqat, ustozlar va ota-onalar hurmatini



sharaflash ruhidagi she'ru dostonlar yaratadilar; bolalarni ilm-ma'rifat nuridan bahramand bo'lishga chorlovchi – maktab, kitob va boshqa turli o'quv qurollarini madh etuvchi asarlar bitadilar va hokazo. Albatta, bu mavzularning har biri ham umrboqiyli va bolalar adabiyotimiz mahsulida doimo sezilarli mavqye kasb etishi isbot talab qilmaydigan haqiqatlar. Binobarin, «ana shu haqiqatlarni har bir avlod qanday qayta kashf qilayapti va bu kashfiyotlarning badiiyat darajasi qanday?» degan savol doimo oldimizda ko'ndalang turishi ham, shu boisdan tabiiydir.

### **Bolalar Sheriyatining Yangi Qahramoni**

Istiqlol davrida xalqimiz tom ma'noda uyg'ondi, o'zligini qayta idrok etdi, ming yillik qadriyatlariga, e'tiqodlariga qaytdi. Ushbu jarayonda o'zbek bolalar she'riyatining ham kamtarona o'rni, o'ziga xos xizmati bor. Ushbu davr o'zbek bolalar she'riyatining eng sara namunalari shu ma'noda yosh avlod qalbida istiqlol tuyg'ularining chechak ochishiga, haqiqiy, tom ma'nodagi ona Vatan – kindik qoni to'kilgan muqaddas Zaminga mehr-muhabbat; ona zaminni, uning betakror tabiati – qir-adirlarini, tog'u o'rmonlarini, bog'-rog'larini, daryoyu ko'llarini avaylab-asrashga, «O'zbekiston» deb atalmish ana shu muqaddas Vatanga, uning nomini olamga tanitgan buyuk farzandlari – mutafakkir olimu shoirlari, ulug' Turkiston yagonaligi uchun kurashgan sohibqiron tojdorlari sha'niga munosib farzand bo'lish ruhida tarbiyalashga xizmat qiladi.

Shu o'rinda marhum ijodkor H.Imonberdievning «Alla» she'ridagi quyidagi misralar beixtiyor yodga tushadi:

- Ana, Bo'ri kelyapti!

Uxlay qol, ovunchog'im.

Qo'y shunday deb qo'rqitib,

Uxlatar qo'zichog'in.

- Vuy, anovi ilonni!

Uxla tez, bolajonim, -

Chumchuq shunday qo'rqitib,

Uxlatar polaponin.

- Uxla, Olabo'jiyov

Ko'rsatgan qorasini. -

Odam shunday qo'rqitib,

Uxlatar bolasini.



Ona Burgut allalar:

- Uxla, kuchga to'lib o's.

Ushbu tog'-tosh, osmonning

Hukmdori bo'lib o's!

Pisand etmay xatarni

Shundanmi polaponi,

Tushlarida charx urar

To'ldirib keng samoni (Imonberdiyev, 1994: 22).

Nazarimizda, ushbu she'r badiiy-estetik jihati bilan bir qatorda katta tarbiyaviy-ma'rifiy ahamiyat ham kasb etadi va bolalar adabiyotining asosiy o'ziga xosligi ham shunda namoyon bo'ladi. Zero, o'zbek bolalar adabiyoti mustaqil O'zbekiston kelajagini yaratuvchi yosh avlod tarbiyasiga mas'ul ekan, farzandlarimiz erksevar, mard, komil insonlar bo'lib yetishuvi yo'lida doimo baland pardalarda yangramog'i kerak. Toki ijodkorlarimizning har bir asari yosh kitobxon qalbida ezgulik, insoniylikning bir niholi ildiz otishiga xizmat qilsin. Ana shundagina bolalar adabiyoti o'z missiyasini muvaffaqiyat bilan ado etgan bo'ladi. «Alla» she'ri ham shu jihati bilan e'tiborga molik. Ona Burgut polaponining qalbiga «ushbu tog'-tosh, osmonning hukmdori bo'lib o'sish»ni go'dakligidan alla bilan singdirayotganligi bois burgutchga hatto tushida ham keng samoni to'ldirib charx urgani singari mustaqil Ona yurtimizning kelajagi bo'lmish farzandlarimiz ham bolalikdan shu aziz Vatanning egalari, uning baxt-saodatini, porloq kelajagini yaratuvchilar ekanliklariga komil ishonch ruhida tarbiyalanmoqlari lozim.

Bular – masalaning ijtimoiy, ilmiy va amaliy jihatlari. Biroq muammoning ahamiyati bulardan kam bo'lmagan estetik jihati ham mavjud. Zero, She'riyat – Ona qadar pokiza xilqat, Ona qadar beg'ubor go'zallik, Ona qadar mehribon va talabchan murabbiydir. Shu boisdan ham she'riyatga oshno qalblar go'zallikni his qiladi, go'zallikdan zavq oladi, bunday qalbning o'zi ham go'zal bo'ladi. Ana shu ma'noda istiqloq davri o'zbek bolalar she'riyatining eng yaxshi namunolari hayotga endigina qadam qo'yib kelayotgan yosh avlodning pok qalbini go'zallik nuri bilan munavvar qiladi, bu beg'ubor qalblarga ezgulik urug'ini sochadi, ularni go'zal ona Vatanimizning porloq kelajagini yaratuvchi tom ma'nodagi go'zal Insonlar qilib tarbiyalashdek mas'uliyatli ishga o'zining xolis hissasini qo'shadi.

Ma'lumki, bolalar tabiatan hamma narsaga qiziquvchan, har bir narsaning qanday paydo bo'lganini aniqlashga, masalaning mohiyatini anglashga



intiluvchan bo'ladilar. Shu boisdan ham yosh kitobxonga mo'ljallab yaratilgan eng yaxshi she'rlarda bolalarning ushbu xususiyatlari turli jihatlari bilan namoyon bo'ladi. Bundan tashqari, ijodkor asarlarini bolalarga mo'ljallab yaratar ekan, uning asosiy qahramonlari bolalar bo'lishi ham tabiiy. Chunki kitobni o'qiyotgan bola asardan, avvalo, o'zini, o'y-fikri, dunyoqarashi, izlanish-intilishlari o'zi bilan bir xil bo'lgan tengdoshlarini qidiradi.

Bugungi bolalar she'riyatining yetakchi namoyandalaridan bo'lgan, marhum T.Adashboev she'rlarida ana shunday yosh qahramonlar obrazi alohida o'rin tutadi. Bu she'rlarda asar markazida lirik qahramon sifatida har biri o'ziga xos olam bo'lgan bolalar obrazlari turadi, bepoyon olamni o'z nigohi bilan ko'rishga, uning turfa sir-sinoatlarini o'zicha kashf qilishga, hayotda o'z o'rnini topishga intilayotgan yosh qahramonning ba'zan beg'ubor, bolalarcha sodda, ba'zan o'sha soddalik ortiga yashiringan bolalarcha quv, ayyor, lekin, asosiysi, doimo izlanishda, o'sish-ulg'ayishdagi qiyofasini shoir mohir musavvir singari turfa yorqin bo'yoqlarda tasvirlaydi. Uning asarlarini yosh kitobxonlarga manzur qiladigan jihatlari ham shunda aks etadi.

Ijodkor bola timsolini yaratar ekan, yaratuvchilik ishqini bilan yongan, «kelajakda kim bo'lsam ekan?» deb, ertaga umid ko'zlarini tikkan, orzu-havaslar og'ushida yashayotgan bolalar obrazi uning diqqat markazida bo'lishi tabiiy. Zero, shoirning ana shunday she'rlari minglab tengdoshlari orasidan yosh qahramonlarni ajratib oladi, ularni fikrlashga, tinglashga, olamga nazar tashlashga o'rgatadi. Fikrlash ehtiyoji esa shaxsning kamol topishiga olib keladi. «Tunda uchgan yulduzni» she'ri qahramonlari ana shunday ulkan umidlar bilan yashayotgan Nodir va Nosir ismli bolalar:

Nodir: - Kosmonavt bo'lsam, oyga

Kaptar rasmin o'yardim.

Nosir: - yer kurrasini bayroqdek,

Alvon rangga bo'yardim.

Nodir: - Ona-Vatan mehri

Ko'kdan boqib to'yardim.

Nosir: - Marsga ekib handalak,

Do'stlar kelsa so'yardim.

Nodir: - Tunda uchgan yulduzni

O'z o'rniga qo'yardim.

Eh, attang, - deydi Nosir,

Yoshmiz-da, hali axir (Adashboyev. 2003: 127).



Kosmonavt bo'lib, osmonlarda uchish, ko'klarni quchish, Oyu Marslarni o'zlashtirish, tunda uchgan yulduzni o'z o'rniga qaytarib qo'yishdek ulkan orzu-umidlar qurshovida yashayotgan bolalarning niyatlari pok: Nodir Oyga kaptar rasmini o'ymoqchi, kaptar esa tinchlik ramzi, demak, bolakayning orzusi butun olamda tinchlik barqaror bo'lishiga erishish; Nosir Marsga handalak ekib, do'stlari kelsa handalak so'yib, ularni mehmon qilmoqchi, demak, uning niyati ham ezgulik. Dialogik nutq uslubiga asoslangan ushbu she'rda bolalarning o'zbekona bag'rikenglik, mehmondo'stlik tabiati ishonarli, samimiy satrlarda tasvirlangan. She'r xulosasi bolalar hali yoshliklari-dan ozgina afsuslansalar-da, beg'ubor orzu-istaklari niyatlari pokligiga, qat'iyligiga kitobxonni ishontira olishi bilan e'tiborga loyiq.

«Mening savolim» she'rida esa barcha narsaga qiziquvchan, hamma narsaning mohiyatini bilishga intiluvchi ana shunday bolakaylardan yana birining jonli obrazi yaratilgan:

O'ylab qoldim ko'rpadan

Turib-turmay uyg'onib.

Tun ne uchun qorong'i?

Kunduz nega yop-yorug'?

Onam, buvim qayoqdan –

Yaralganim so'rasam,

Qotib-qotib kulishar,

O'ylab hayron bo'lasan.

Parvoz etar nega qush?

Bu savol ham qiynaydi.

Nechun uchmas qalpog'im?

Meni ko'zi qiymaydi?

Turib-turmay ko'rpadan

Shuncha savol qoshimda.

To'lib-toshgan jumboqlar

Yurar mening boshimda (Adashboyev. 2003: 36).

Darhaqiqat, hayotda duch kelayotgan har bir yangiligi yosh bola uchun mo'jiza. U tabiat va jamiyatdagi har bir narsa va hodisaning mohiyatini tushunishga, anglashga harakat qiladi va «nima uchun?» degan yuzlab savollari bilan bobo-buvisi, ota-onasi, aka-opalariga tinim bermaydi. Rostdan ham, nega tun qorong'u-yu, kunduz yop-yorug'? Nega qush



parvoz qila oladi-yu, bolaning qalpog'i uchmaydi? Binobarin, yosh bola maktab yoshiga yetgunga qadar tabiat va jamiyatning o'z nazaridagi har bir hodisasini mo'jiza deb hisoblashi hamda uning sir-asrorini dastlab o'zi yechishga urinishi, o'zi uddasidan chiqa olmaganida hayot tajribasi kattaroq odamlardan yordam so'rashi u kishilik olamiga kirib kelishining dastlabki bosqichlari ekanligi she'rda ishonarli va samimiy tasvirlangan.

Bolalar she'riyatimiz, yuqorida qayd etilganidek, «bugungi kun yosh qahramoni qanday bo'lishi kerak?» degan savolga javob topish yo'lida, yosh qahramonning o'ziga xos badiiy olamini kashf etish borasida tinimsiz intilish-izlanishda ekanligini tasdiqlashga, bu adabiyotning e'tiborga sazovor o'ziga xosliklari mavjudligini ko'rsatishga, uning kelajagidan umidbaxsh qilishga xizmat qiladigan misollar yetarli.

### **Bolalar Sheriyati Qahramonlarinig Xilma-Xilligi**

Bugungi bolalar she'riyati qahramonlari haqida gap ketar ekan, ular safi rang-barangligini ham qayd etish kerak. Ular orasida H.Imonberdievning «O'jarlar» turkumi qahramoni G'anicha va «G'alati Omon» turkumidagi Omonni alohida tilga olish joiz. G'anining ismiga jussasi kichikligi, zaifligi uchun kichraytiruvchi «cha» qo'shimchasi qo'shilgan. Biroq shunisi qiziqki, qishloq bolalari zo'ravon, «qishloqning shefi» deb nom chnqargan Sanjarni ko'rishlari bilan tumtaraqay bo'lib ketishsa, o'jar G'anicha tap tortmay turaveradi, Sanjar uni har qancha kaltaklasa ham, suvga pishsa ham cho'miladigan joydan ketmaydi. Chunki u cho'miladigan joy birgina zo'ravon Sanjarga emas, barcha bolalarga tegishli deb hisoblaydi. Qo'y boqishga chiqqanlarida bolalarning barchasi navbatma-navbat Sanjarning qo'ylarini boqishsa-da, ushoqqina G'anicha Sanjarga xizmatkor bo'lishni istamaydi va o'jarligi uchun yana Sanjardan kaltak yeydi. Hamqishloqlari har qancha «bu yo'lingdan qayt, bo'lmasa kaltak tagida mayib bo'lib ketasan» deyishsa-da, u yo'lidan qaytmaydi, haqiqat yo'lida, insoniy qadr-qimmat yo'lida o'zidan kuchli raqib bilan ham tinmay mushtlashaveradi:

Navbatdagi haqorat

Toshi otilgan payti,

G'anidagi jasorat

Iziga ketdi qaytib.

G'ani bir dam tosh qotdi,

Borliq rangin yo'qotdi.

Oyoq-qo'li bo'shashib,

Turib qoldi karaxtday.





Qalqib ketdi, kesilib  
Qulayotgan daraxtday.  
Birdan hayqirdi: - Yo'q! Yo'q!  
Va Sanjarga tashlandi.

Yana mushtu yana do'q,  
Yana ur-sur boshlandi.  
Ha, bu gal ham qochmoqni  
Ep bilmadi G'anicha.

Ko'p-xo'p yedi kaltakni,  
Solishdi to'yganicha.  
Har yon ketdi raqiblar  
Bir-biriga demay so'z.

Barcha bola jim boqar,  
G'anichadan uzmay ko'z (Imonberdiyev. 1994: 80).

Nazarimizda, ushbu she'rda hayotga jiddiy boqadigan, o'z o'rni, insoniy qadr-qimmatini hamma narsadan ustun qo'yadigan, qadri uchun hatto noteng kurashdan ham qaytmaydigan qahramon xarakteri, fe'l-atvori ancha jonli yaratilgan. Shuncha voqyealar bo'lib o'tganida G'anichaga «o'jarligingni qo'y, kaltak yeb mayib bo'lib ketasan» deb «maslahat» berishgagina yaragan, haqiqatning yonini olishga yaramagan, joni ko'ziga aziz ko'ringan bolalar oxirida G'anichaga hiech so'z demay tikilib qoladilar. Aslida ham so'zga o'rin yo'q. Chunki haqiqat egilishi, bukilishi, haqoratlanishi mumkin, biroq sinib, yo'q bo'lib ketmaydi. Shu boisdan ushoqqina haqiqatning oxir-oqibat g'olib chiqishi tabiiy va u, aslida, katta haqiqatga yo'l ochadi. Shu ma'noda bu she'r katta ijtimoiy-ma'rifiy ahamiyat kasb etadi: millionlab kilometr masofadan kelayotgan bnr tutam nur yo'limizni yoritgani singari ushbu kichkinagina haqiqat ham qalblarga chiroq yoqadi.

Bolalar adabiyotimizning ertasi sifatida bo'y ko'rsatayotgan umidli qalamkashlardan Sodiqjon Inoyatovning «Yangi bola», «Yosh partizan haqidagi filmni ko'rganda» she'rlaridagi o'ziga xoslik u topgan, kashf qilgan



kutilmagan va tesha tegmagan mavzularda, tiniq tasvirda, baquvvat, pishiq xulosalarda aks etadi. Mana, yosh shoirning «Yangi bola» she'ri:

U suzong'ich takaning  
Ushlolmadi shoxidan.  
Nok o'g'iray olmadi  
Nosir aka bog'idan.

Dedim - ko'rqqoq bo'lmasang,  
Olaparni bitta sol!  
Eplolmaysanmi? Qani,  
Bu yerdan tez jo'nab kol!

Xullas, bizning «sinov»dan  
O'ta olmadi sira.  
Mahallada yo'q unga  
Bitta ham o'rtoq, jo'ra.

Ammo qo'shni bolakay  
Cho'kayotgan payt suvga,  
O'zini soyga otib  
Tik qaradi Qo'rquvga! (Inoyatov. 2011: 45)

Shoirlarimiz she'rlari qahramonlari ko'pincha sho'x-shaddod, topqir, ozgina quvrog'u, ozgina soddaroq bolakaylar. Biroq bu she'r qahramoni ularning aksicha, bo'sh-bayovgina bola. She'rning muvaffaqiyati esa, ehtimol, ana shu kutilmagan xulosada – ya'ni tashqi ko'rinish, jismoniy kuch hali hyech narsani hal qilmasligining yorqin va asosli aks ettirilganida, «sinovchi»larning tan olishlaridadir. «She'r odatda hayratdan tug'iladi», degan gap ham bor. «Yangi bola»ni yosh kitobxonga manzur qiladigan sifat borib-borib o'sha hayratga, tan olishga taqalsa ham ajab emas.

Hozir bolalar ham yoppasiga she'r yozayotgan bir paytda she'rning vazn va qofiyasini kelishtirish bilan hyech kimni hayratga solib bo'lmaydi. Faqat samimiyat, qalb qo'ridan chikqan yog'du va dard bilangina kitobxonni o'ylatib qo'yish mumkin. «Yosh partizan haqidagi filmni ko'rganda» she'ri ana shu xususiyati bilan kitobxon qalbiga jo bo'lishi shubhasiz:



Rahmatulla Barakayev

Eng so'nggi so'roqda ham

Mardona tutdi o'zin.

Sotmadi do'stlarini

O'yishganda ham ko'zin.

Dushmanlar alamzada,

Olib qasdma-qasdiga,

Partizanni tashlashdi

Og'ir tankning ostiga.

Zal larzada! G'azabdan

Yuraklar to'la nafrat

Kimdir ingrar dard bilan:

«Fashistlar, sizga la'nat!»

Dahshat edi bundan ham

O'sha damda ushbu hol:

Bir qiz ekranga qarab

Olma kavshar bemalol (Inoyatov. 2011: 54).

Tosh toshga urilganda chiqqan chaqindan o'rmonga o't ketganiday, ikki dahshatni bir-biriga qiyoslaganda ma'naviy qashshoqlik, o'zgalar dardiga esh, hamdard bo'lolmaslikday qalb nogironligi naqadar razolat ekanligi she'rd a yaqkol aks etgan. Tanqidchilar, ko'pincha, bolalar uchun yozilgan she'rlarda ochiq tarbiyaviy xulosa, qissadan hissa bo'lmagani tuzuk, chunki u she'rni bo'shashtirib yuboradi dey dilar. Biroq, bizningcha, ushbu misol bu gapning hamma vaqt ham to'g'ri bo'lavermasligi, gal mahoratda, samimiyatda, haroratda, tasvirda ekanini ko'rsatadi.

## Xulosa

Ushbu she'rlarning ba'zilari XX asrning 80-90-yillarida, ya'ni istiqloq arafasida va mustaqilligimizning dastlabki o'n yilligi mobaynida yaratilgan bo'lsa-da, bugungi kunda ham yosh avlod ma'naviy kamolotiga beminnat xizmat qilayapti. Biroq, afsuslar bilan qayd etish kerakki, bugungi kunda badiiy adabiyotni maktab adabiyot darsliklariga kiritilgan namunalar darajasidagina biladigan, badiiy asar o'qishdan ko'ra test yodlaydigan amaliyotchi avlod ham paydo bo'ldi. Bu avlodning fazilati shundaki, u



kompyuter bilan tillashishga usta, xorijiy tillarni ham yaxshi biladi. Lekin bu avlod kitobning qog'ozi hidi qandayligini bilishiga gumonim bor. Chunki u televizorda xorijning zo'rvonlik targ'ibiga asoslangan multfilmlarini ko'rib ulg'aymoqda, kitobni ham kompyuterdan, Internetdan o'qiydi. Internetdagi kitoblarning esa farzandlarimizni milliy, madaniy, tarixiy, adabiy qadriyatlarimiz ruhida tarbiyalashga xizmat qilishi dargumon. Binobarin, yosh avlod ma'naviy kamolotiga mas'ul har bir kishining oldida farzandlarimizni badiiy adabiyot o'qish, ular qalbida asar qahramonlari taqdiriga esh bo'la olish, xursandchiligini o'z xursandchiligi, xafaligini o'z xafaligi sifatida qabul qila olish ko'nikmasini hosil qilishdek mas'uliyatli vazifa turibdi.

Bolalar she'riyatimiz esa, yuqorida qayd etilganidek, «bugungi kun yosh qahramoni qanday bo'lishi kerak?» degan savolga javob topish yo'lida, yosh qahramonning o'ziga xos badiiy olamini kashf etish borasida tinimsiz intilish-izlanishda ekanligini tasdiqlashga, bu adabiyotning e'tiborga sazovor o'ziga xosliklari mavjudligini ko'rsatishga, uning kelajagidan umidbaxsh qilishga xizmat qiladigan misollar yetarli.

### **Kaynakça / Foydalanilgan Adabiyotlar Ro'yxati / Reference**

Adashboyev Tursunboy, (2003). Orzularim – qo'sh qanotim. Sharq nashriyoti, Toshkent.

Imonberdiyev Hamza, (1994). G'aroyibkent hangomalari. Cho'lpon nashriyoti, Toshkent.

Inoyatov Sodiqjon, (2011). Onamni sog'inib. Sharq nashriyoti, Toshkent.

Obidjon Anvar, (2007). Bahromning hikoyalari, Sharq nashriyoti, Toshkent.

Rajab Dilshod, (1996). Otamning bog'i, Cho'lpon nashriyoti, Toshkent.

